



## ENERGETIK VA KOMMUNAL TIZIMDAGI AVARIYALARNI OLDINI OLIISH VA UNDAN AHOLINI HAMDA HUDUDLARNI MUHOFAZA ETISH CHORA- TADBIRLARINI ISHLAB CHIQISH.

*Madaminova Shahloxon Sharifjon qizi*

*Andijon davlat texnika instituti*

*Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi yo'nalishi*

*Bakalavr 3- bosqich talabasi, O'zbekiston*

*Email: [shahlomadaminova84@gmail.com](mailto:shahlomadaminova84@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada energetik va kommunal tizimlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan avariylarni oldini olish, ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish, aholi va hududlarni muhofaza qilish bo'yicha samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish masalalari ko'rib chiqiladi. Avariya xavfini erta aniqlash, texnik profilaktika, monitoring tizimlarini joriy etish va favqulodda vaziyatlarga tayyorlikni oshirish orqali barqaror va xavfsiz tizim yaratish asosiy maqsad qilib olinadi.

**Kalit so'zlar:** Hidroelektrostansiyalar, tuman issiqlik markazlari, elektr tarmoqlari, bug' - qozon qurilmalari, kompressor va gaz taqsimlash shoxobchalari, kanalizatsiya tizimlari.

Kirish: Energetika va kommunal tarmoqlarda sodir bo'lgan avariylar oqibatida kamdan –kam odamlar halok bo'ladi, lekin bu avariylar, ayniqsa sovuq yoki issiq vaqtda aholining turmushida ko'p qiyinchiliklar tug'diradi.

Energetika va kommunal tizimlardagi avariylarga quyidagilar kiradi:

-sanoat va qishloq xo'jaligi mas'ul istemolchilarining avariya tufayli energiya taminotisiz qolishiga hamda aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib kelgan Hidroelektrostansiyalari, tuman issiqlik markazlaridagi, elektr tarmoqlaridagi, bug' - qozon qurilmalaridagi, kompressor va gaz taqsimlash shoxobchalaridagi va boshqa energiya ta'minot obyektlaridagi avariylar va yong'inlar;

-aholi hayot faoliyatining buzilishiga va salomatligiga xavf tug'ilishi olib kelgan gaz quvurlaridagi, suv chiqarish inshootlaridagi, suv quvurlaridagi, kanalizatsiya va boshqa kommunal obyektlaridagi avariylar;

-atmosfera, tuproq, yer osti va yer usti suvlarining odamlar salomatligiga xavf tug'diruvchi darajada konsentratsiyadagi zararli moddalar bilan ifloslanishiga sabab bo'lgan gaz tozalash qurilmalaridagi biologik va boshqa tozalash inshootlaridagi avariylar.

Elektr energiya tizimlarida sodir bo'lgan avariylar katta hudud aholisining elektr ta'minoti uzoq uzilishlarga, jamoat elektr transportining harakat jadvalidagi o'zgarishlarga va odamlarning tok zarbasidan jabrlanishga olib keladi.

Kanalizatsiya tizimlarida sodir bo'lgan avariylar – ko'plab iflos moddalar tarqalishiga, sanitar-epidemiologik vaziyatning yomonlashuviga olib keladi.

Suv ta'minoti tizimidagi sodir bo'lgan avariylarda aholining suv bilan ta'minlanishi buziladi yoki suvni ichish mumkin bo'lgan holatga keltiradi.

Isitish tarmoqlarida sodir bo'lgan avariylar yilning qish vaqtida aholining isitilmagan xonalarda yashashga yoki ularni evakuatsiya qilishga majbur qiladi.

Kommunal tizimda sodir bulgan avariylar qisqa vaqtda bartaraf etiladi, lekin suv, elektr manbasi uylarni isitishda uzoq uzilishlar bo'lishi mumkin.

Energetika tizimlarida sodir bo'lgan avariylarning oqibatlarini kamaytirish uchun uyingizda gugurt, sham, spirt, kerosin, batareyalar zahirasini tashkil eting. Avariya holatida yordam ko'rsatadigon barcha xizmatlaring telefon raqamlarini biling.

Kommunal tizimlarda avariylar sodir bo'lganda birinchi navbatda bajariladigan harakatlar:

-avariya haqida shahar obodonlashtirish boshqarmasi yoki uy-joy kommunal bo'limiga xabar beriladi. Elektr tarmog'ida kuchlanishning o'chishi yoki sakrashi holatida darhol barcha elektr



asboblarini manbadan ajratib o'chiriladi. Bu sizning yo'qligingizda elektr energiyasi kelgandi, yong'in sababchisi bo'lmasligi uchun ahamiyatlidir.

Xonada ovqat tayyorlash uchun faqat zavodlarda tayyorlangan moslamalarni ishlatib. Primus, kerogaz, kerosinkalar yo'q bo'lsa, ko'chada yoqilgan gulxandan foydalaning. Xonani yoritishda sham va spirtni ishlatganda juda ehtiyot bo'lishingiz lozim.

Ko'chada uzilgan yoki osilib qolgan simlarga 5-8 metrgacha yaqinlashmang va ularga teginmang. Nosoz joyni qo'riqlashni tashkiillashtiring, atrofdagilarni ogohlantirib, hududiy favqulodda vaziyatlar bo'limiga xabar bering (tel:1050)

Agar uzilgan sim yo'lingizga tushsa, tok zarbasi zonasidan mayda qadamlar bilan yoki sakrab chiqing. Bu bilan siz qadamli kuchlanishdan saqlanasiz. Agar suv quvurlari suv yo'qolsa, barcha ochiq kranlarni yopib chiqing. Ovqat tayyorlash uchun sotuvdagi toza suvni ishlatib. Xavfsiz ekanligi haqida xulosa olmaguncha buloq va boshqa ochiq suv havzalari suvini ishlatmang.

Yodingizda tursin: suv qaynatilganda ko'pgina zararli biologik vositalar zararsizlantiriladi. Suv tozalashda turmushda ishlatiladigan filtdan foydalaning, suvni ochiq idishda bir necha sutka mobaynida ichiga kumush tanga yoki qoshiq solib saqlang.

Suvni eng yaxshi tozalash usuli bu uni muzlatishdir. Muzlatish uchun suvi bor idishni muzlatgichning yuqori kamerasiga qo'ying. Suv muzlay boshlaganda muzning ustki qismini oling, suv yarmigacha muzlaganda qolgan suvni to'kib tashlang-muz erishdan olingan suvni ovqatga ishlatib.

Agar markaziy isitish tizimi ishlayotgan, bo'lsa, xonani isitish uchun faqat zavodda tayyorlangan elektr isitgichdan foydalaning. Qo'lbola isitgichlardan foydalanilganda yong'in ehtimoli juda yuqori. Yodingizda tursin: xonadonni gaz yoki elektr plitasi yordamida isitish fojeaga olib kelishi mumkin.

Xonada issiqlikni saqlash uchun deraza va balkon eshiklarini gilam yoki choyshab bilan to'sing, tirqishlarni yoping. Vaqtincha boshqa xonalarni yopib, oila a'zolaringizni bir xonaga joylashtiring. Issiqroq kiyining va o'tkir respirator kasallik hamda grippdan saqlanish uchun dori iching.

Suv ta'minoti tizimida ajratuvchi tarmoqlarda, nasos stansiyalarida, bosim minoralarida avariya ko'proq sodir bo'ladi. Avariya elektr energiyani o'chirib qo'yilishi, yer osti quvur yo'llarining buzilishi natijasida yuzaga keladi.

Suv ta'minotini barqarorligini oshirish maqsadida buzilishlarni cheklab o'tib istalgan quvurlarga suv berishni ta'minlovchi ma'lum miqdordagi to'xtatuvchi va ulovchi moslamalar bilan jihozlash zarur.

Ko'pincha avariya kanalizatsiya tarmoqlarida va kollektorlarda yuz beradi. Ularni buzilishi oqibatida najas suvlari ichimlik suviga tushishi mumkin, bu esa yuqumli va boshqa kasalliklarni tarqalishiga sabab bo'ladi. Suyuqlikni nasos vositasida bir joydan boshqa joyga haydash stansiyalarida rezervuarlarda chiqindi suyuqliklar bilan to'lib ketishi natijasida avariya yuz berishi mumkin. Bu stansiyalarda zahiradagi elektroagregat yoki ko'chma elektrostansiya bo'lishi kerak.

Kompressor va gaz taqsimlash stansiyalaridagi avariya texnologik jarayonning buzilishi, tabiiy ofatlar, loyihadagi xatoliklar, agregatlarning eskirishi va h.k. natijasida kelib chiqadi. Uy-joy binolarida va korxonalarda gaz chiqishi natijasidagi portlash - har bir iste'molchining e'tiborsizligi va oddiy intizom qoidalariga rioya qilmasliklaridir.

Odatda tabiiy ofatlar paytida transformator stansiyalari va taqsimlash punktlari bino va inshootlari kamroq, elektr uzatish havo liniyalari ko'proq talofat ko'radi. Simlarning uzilishi natijasida deyarli har doim qisqa tutashuv sodir bo'ladi, ular yong'inga olib keladi. Elektr bilan ta'minlashning yo'lagi o'rnatilgan hayot faoliyati maromining buzilishiga olib keladi. Havo liniyalarini yer osti kabellariga almashtirish yoki ikkita mustaqil energiya manbaalarini tashkil qilish yo'li orqali elektr ta'minoti barqarorligini oshirish mumkin.

Issiqlik ta'minotidagi avariya ko'pincha sovuq kunlarda, suv harorati va bosimi oshganida sodir bo'ladi. Ko'plab issiqxonalar tabiiy gazda ishlaydi. Gaz quvurlarini shikastlanishi gaz ta'minotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu hol bo'lmasligi uchun, har bir bug' qozonlari bir necha turdagi:



suyuq, gaz va qattiq yoqilg‘i bilan ishlaydigan qilib jihozlash kerak. Yoqilg‘idan tashqari, bug‘xonalarni ikkita manbaadan elektr energiyasi bilan ta‘minlash va zahira elektroagregatiga ega bo‘lish kerak.

**Xulosa.** Energetik va kommunal tizimlardagi avariylarning sabablarini bilish, ularni oldini olish, aholini hamda hududlarni muhofaza etish chora-tadbirlarini o‘z vaqtida oqilona tashkil etish avariylarning salbiy oqibatlarini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun oliy ma‘lumotli bo‘layotgan talabalar-bo‘lg‘usi FM boshliqlari) bu sohada chuqur bilim va malakaga ega bo‘lishlari zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Yo‘ldoshev T.T., Azimov M.A. Favqulodda vaziyatlar xavfsizligi
2. Mamatqulov A.S. Energetika tizimlarida ishonchlilik va xavfsizlik
3. Xodjakulov M.N. Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash. Hayot nashri-2020. Andijon. 2021.
4. Xodjakulov M.N., Qobulova N.J. Qutqaruv ishlari. Darslik. Andijon-2024.
5. Xodjakulov M.N. Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Darslik. Andijon-2024.